

**SAYID OTALIQ MADRASASI – TARIX VA ME'MORCHILIK
YODGORLIGI**

Xurramova Zarrina Nuriddin qizi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sayid Otaliq madrasasining tarixiy shakllanish jarayoni, uning qurilish davri va o'sha davrdagi ijtimoiy-madaniy muhitdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Madrasa XIX asrda bunyod etilgan bo'lib, u nafaqat diniy ta'lim maskani, balki ilm-ma'rifat markazi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Maqolada uning me'moriy tuzilishi, qurilish uslubi, bezak elementlari va an'anaviy sharq me'morchiligi bilan bog'liqligi keng yoritiladi.

Shuningdek, madrasaning ichki va tashqi tuzilishidagi o'ziga xosliklar, hujralar joylashuvi, peshtoq va ravoqlar dizayni hamda ularning badiiy-estetik qiymati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Sayid Otaliq madrasasining o'sha davr ilmiy va diniy hayotdagi o'rni, u yerda tahsil olgan talabalarning faoliyati ham ko'rib chiqiladi.

Maqolada, shuningdek, ushbu tarixiy obidaning bugungi kundagi holati, uni saqlash va restavratsiya qilish masalalari, hamda madaniy meros sifatidagi ahamiyati ham yoritiladi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston hududidagi tarixiy me'moriy yodgorliklarni chuqur o'rganish, ularni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sayid Otaliq madrasasi tarixiy yodgorlik me'moriy meros XIX asr Denov tumani Surxondaryo viloyati Buxoro amirligi islom ta'limi madrasa tuzilishi hujralar peshtoq ravoq madaniy meros restavratsiya ma'rifat markazi

Аннотация: В данной статье рассматривается историческое и архитектурное значение медресе Сайида Отаалика, расположенного в Деновском районе Сурхандарьинской области. Медресе было построено в XIX веке и в своё время являлось важным центром религиозного образования и просвещения.

В работе анализируются особенности архитектурного стиля здания, его внутреннее устройство, традиционные элементы восточного зодчества, такие как худжры, айваны и портал. Также уделяется внимание роли медресе в системе образования периода Бухарского эмирата.

Кроме того, рассматривается значение данного памятника как важного объекта культурного наследия и необходимость его сохранения для будущих поколений. Медресе Сайида Отаалика является ярким примером историко-архитектурного наследия Узбекистана и отражает богатые традиции народного зодчества.

Ключевые слова: медресе Сайида Отаалика, исторический памятник, архитектурное наследие, XIX век, Деновский район, Сурхандарьинская область,

Бухарский эмират, исламское образование, медресе, худжры, порталъная архитектура, арки, восточная архитектура, культурное наследие, историческое здание.

Annotation: This article explores the historical and architectural significance of the Sayid Otaliq madrasah located in the Denov district of the Surkhandarya region. The madrasah, built in the 19th century, served as an important center of religious education and spiritual development during its time.

The study analyzes the architectural features of the building, including its traditional Eastern design elements such as courtyards, hujras (cells), arches, and the main portal. Special attention is given to the role of the madrasah within the educational system of the Bukhara Emirate period.

In addition, the article highlights the cultural and historical value of the monument as an important part of Uzbekistan's heritage. It also emphasizes the necessity of preserving and restoring such historical sites for future generations. The Sayid Otaliq madrasah stands as a valuable example of Islamic architecture and cultural legacy in the region.

Keywords: Sayid Otaliq madrasah, historical monument, architectural heritage, 19th century, Denov district, Surkhandarya region, Bukhara Emirate, Islamic education, madrasah, hujras, portal architecture, arches, Eastern architecture, cultural heritage, historical building.

Kirish qism: Har bir xalqning tarixi uning madaniy merosi, me'moriy yodgorliklari va qadimiy ta'lim maskanlarida o'z aksini topadi. O'zbekiston hududida joylashgan tarixiy obidalar ham xalqimizning boy o'tmishi va yuksak madaniyatidan darak beradi. Ana shunday bebaho yodgorliklardan biri Surxondaryo viloyatining Denov tumanida joylashgan Sayid Otaliq madrasasidir.

XIX asrda bunyod etilgan ushbu madrasa o'z davrida muhim ilm-ma'rifat markazi sifatida xizmat qilgan bo'lib, unda diniy va dunyoviy bilimlar o'qitilgan. Sayid Otaliq madrasasi nafaqat ta'lim maskani, balki o'sha davr me'morchilik san'atining yorqin namunasi ham hisoblanadi.

Bugungi kunda bu tarixiy bino o'zining me'moriy tuzilishi va tarixiy ahamiyati bilan tadqiqotchilar va sayyohlarning e'tiborini tortib kelmoqda. Shuning uchun ushbu maqolada Sayid Otaliq madrasasining tarixi va me'moriy xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Said otaliq madrasasi — O'zbekiston Respublikasi, Surxondaryo viloyati, Denov shahri markazida joylashgan 2 qavatli madrasa inshooti. XIX asrda Mang'itlar o'zbek sulolasi vakili amir Haydar hukmronligi davrida, uning qaynotasi Sayyid otaliq homiyligida, Buxorolik me'mor usta Ahmad Mamat Buxoriy tomonidan bunyod etilgan.

Madrasa XVI asrda Shayboniylar hukmronligi davrida islom dini arbobi — Hazrat Xoja Alouddin Attorga atab qurilgan deya taxmin qilinadi [2]. Buxoroning yirik madrasalari qurilishi uslubida barpo etilgan (Ko'kaldosh va boshqa madrasalar). Mazkur shakldagi madrasa Surxondaryo viloyatida yagonadir. Denovning Mustaqillik ko'chasida joylashgan [1]. Hozirda madrasa ayanchli ahvolga kelib qolgan bo'lib, qulash arafasida [3][4]. O'zbekiston moddiy va madaniy merosining ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan.

"Tuhfat az-zoiriyin"da aytilishicha, Hazrat Xoja Alouddin Attor shayx, naqshbandiya tariqati shayhlari oltin zanjiri ketma-ketligi hisobida — o'n yettinchisi bo'lib, Bahouddin Naqshbandning vorisi, muridi [5], "Tuhfat az-zoiriyin"da aytilishicha, Hazrat Xoja Alouddin Attor shayx, naqshbandiya tariqati shayhlari oltin zanjiri ketma-ketligi hisobida — o'n yettinchisi bo'lib, Bahouddin Naqshbandning vorisi, muridi [5], kuyovi bo'lgan. U kishining ikki halifalaridan biri hisoblangan. Hazrat Xoja Alouddin Attor Chag'oniyon viloyatiga 1389—1396-yillarda oilasi bilan kelib qolgan va milodiy 1400-yil 18-martda Denovda vafot etgan. Sarmozor ota degan joyda dafn qilingan [6]. Bu yer hozirda „Shayx Attor Valiy“ [7] yoki „Ostona buva“ deb ataladi [2]. Qabristonda Xoja Alouddin Attorning keyingi avlodlari, jumladan, uning o'g'li — Shayx Hasan Attoriy, nevarasi Xoja Yusuf Attor ham dafn etilgan.

Tadqiqotchilar Said otaliq madrasasini Hazrat Xoja Alouddin Attor avlodlari tomonidan bunyod etilgani va boshqa ma'lumotlarni qayd etishadi [2]. Fathnomai sultoniyy asariga ko'ra, uni Buxoro amirligi hukmdori Haydarning qaynotasi Sayyid otaliq XIX asr boshlarida qurdirgan. U bir necha yillar Denovda hokimlik vazifasini bajargan ekan [8].

Buxoro inqilobidan oldin madrasada 400 ga yaqin talaba tahsil olgan, ularga 33 mudarris saboq bergan. Sho'rolar tuzumi davrida madrasa yopib qo'yilgan. 1956—1960 va 1972—1973-yillarda O'zbekiston SSR olimlari tomonidan ilmiy o'rganilgan. 1991-yildan, Hoji Luqmonxon Haydarxon o'g'li tashabbusi bilan madrasada talabalarning 4 yillik o'qitilishi boshlangan. Bugungi kunda madrasaning o'rta maxsus islom bilim yurti sifatidagi faoliyati to'xtatib qo'yilgan. 2018—2019-yillardagi xabarlarga ko'ra, madrasa binosi ayanchli ahvolga kelib qolgan, qulash arafasida bo'lgan. Madrasa 2019-yilda tasdiqlangan "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari" milliy ro'yxatiga kiritilib unda hunarmandchilik markazi barpo etish rejalashtirilgan. 2020-yilda binoni saqlab qolish va uning infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ijro muddati etib 2021-yilning mart—aprel oylari belgilangan kuyovi bo'lgan. U kishining ikki halifalaridan biri hisoblangan. Hazrat Xoja Alouddin Attor Chag'oniyon viloyatiga 1389—1396-yillarda oilasi bilan kelib qolgan va milodiy 1400-yil 18-martda Denovda vafot etgan. Sarmozor ota degan joyda dafn qilingan. Bu yer hozirda „Shayx Attor Valiy“ yoki „Ostona buva“ deb ataladi. Qabristonda Xoja Alouddin Attorning keyingi

avlodlari, jumladan, uning o'g'li — Shayx Hasan Attoriy, nevarasi Xoja Yusuf Attor ham dafn etilgan.

Tadqiqotchilar Said otaliq madrasasini Hazrat Xoja Alouddin Attor avlodlari tomonidan bunyod etilgani va boshqa ma'lumotlarni qayd etishadi. Fathnomai sultoniyl asariga ko'ra, uni Buxoro amirligi hukmdori Haydarning qaynotasi Sayyid otaliq XIX asr boshlarida qurdirgan. U bir necha yillar Denovda hokimlik vazifasini bajargan ekan.

Buxoro inqilobidan oldin madrasada 400 ga yaqin talaba tahsil olgan, ularga 33 mudarris saboq bergan. Sho'rolar tuzumi davrida madrasa yopib qo'yilgan. 1956—1960 va 1972—1973-yillarda O'zbekiston SSR olimlari tomonidan ilmiy o'rganilgan. 1991-yildan, Hoji Luqmonxon Haydarxon o'g'li tashabbusi bilan madrasada talabalarning 4 yillik o'qitilishi boshlangan. Bugungi kunda madrasaning o'rta maxsus islom bilim yurti sifatidagi faoliyati to'xtatib qo'yilgan[9]. 2018—2019-yillardagi xabarlarga ko'ra, madrasa binosi ayanchli ahvolga kelib qolgan, qulash arafasida bo'lgan. Madrasa 2019-yilda tasdiqlangan "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari" milliy ro'yxatiga kiritilib unda hunarmandchilik markazi barpo etish rejalashtirilgan. 2020-yilda binoni saqlab qolish va uning infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ijro muddati etib 2021-yilning mart—aprel oylari belgilangan.

Madrasasining me'morchilik uslubi tartibi o'z davrida belgilangan an'analarga mos ravishda barpo etilgan. Bino hovlisi ikki qavatli qurilgan katta-kichik hujralardan tashkil topgan bo'lib, peshtoq ortida miyonsaroy, uning ikki yonida esa masjid va darsxona joylashgan. Madrasa burchaklariga esa guldastalar ishlangan. 40x29.5 metr tarxli hovlisidagi peshayvonlar soni 2 ta. Madrasa poydevorining chuqurligi 5,5 metr. Tomi balxi gumbazli. Hujra derazalariga ganchdan panjaralar ishlangan

Sayyid otaliq to'g'risida manbalarda ma'lumotlar unchalik ko'p emas. U haqida o'zbek olimi Abdusattor Jumanazarning „Vaxshuvor“ va „Qoratosh“ kitoblarida batafsilroq naql qilingan. Ularda yozilishicha, Sayyid otaliq nomi Muhammad Mir Olim an-Nasafiy al-Buxoriyning „Fathnomai sultoniyl“ va Sadri Ziyoning „Silsilai salotini mang'itiya“ asarlarida uchraydi. Olim bu asarlarning birinchisida „Satrlar, qisqagina bo'lsada, uning hayotini ancha ochib beradigan xususiyatga ega edi“ — deb, ikkinchisida esa, Sayyid otaliq nomi Amir Haydar (1810—1825) davridagi „amirlar va davlat a'yonlari qatorida ko'rsatilgan“ — deb yozadi.

Sayyid otaliq yuz o'zbek qavmining ulug' kishilaridan bo'lgan. Marqa yuzlar sho'rolar inqilobiga qadar Sharqiy Buxoroning ijtimoiyl hayoti va davlat boshqaruvida yetakchi o'rin tutgan qavmlardan biri bo'lgan.

Madrasa o'zining an'anaviyl sharq me'morchiligi bilan ajralib turadi. Binoning asosiy qismi pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, ichki tuzilishi hujralar, keng hovli va

peshtoq qismlaridan iborat. Hujralarda talabalar yashab, tahsil olishgan. Bu esa o'sha davr ta'lim tizimining tartibli va tizimli bo'lganini ko'rsatadi.

Madrasa faqat diniy bilimlar emas, balki arab tili, fiqh, hadis kabi fanlarni ham o'rgatgan. Bu esa uning ilmiy markaz sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lganini bildiradi. O'sha davrda bu yerda tahsil olgan talabalar keyinchalik jamiyatda muhim diniy va ma'naviy vazifalarni bajarganlar.

Me'moriy jihatdan esa madrasa sharqona uslubning yorqin namunasi hisoblanadi. Ravoqlar, bezaklar va peshtoq qismi nafis ishlangan bo'lib, o'sha davr ustalarining yuksak mahoratini aks ettiradi. Har bir detal binoning estetik va tarixiy qiymatini oshiradi.

Bugungi kunda ushbu madrasa tarixiy yodgorlik sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, uni o'rganish va asrab-avaylash muhim vazifalardan biridir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Sayid Otaliq madrasasi O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosida muhim o'rin egallaydigan bebaho yodgorliklardan biridir. XIX asrda barpo etilgan ushbu madrasa o'z davrida nafaqat diniy bilim beruvchi maskan, balki ilm-ma'rifat va ma'naviyat markazi sifatida ham katta ahamiyat kasb etgan.

Madrasa orqali yosh avlodga diniy bilimlar bilan birga axloqiy tarbiya, arab tili, fiqh va hadis ilmlari ham o'rgatilgan. Bu esa o'sha davrda ta'lim tizimi ancha rivojlangan va tartibli bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, madrasa me'morchiligi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Undagi hujralar, peshtoq, ravoqlar va ichki hovli tuzilishi sharqona me'morchilik san'atining yuksak namunasi hisoblanadi.

Bugungi kunda ushbu madrasa tarixiy obida sifatida o'rganilmoqda va uni saqlash, restavratsiya qilish hamda kelajak avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biridir. Chunki bunday yodgorliklar xalqning o'tmishini, madaniyatini va ma'naviy boyligini aks ettiradi.

Umuman olganda, Sayid Otaliq madrasasi tarix, ilm va san'at uyg'unlashgan noyob meros bo'lib, u xalqimizning boy tarixiy ildizlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi madaniy meros obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami. Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston tarixi (darslik). Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2019.
3. Surxondaryo viloyati tarixiy obidalari bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent, 2021.
4. Buxoro amirligi davri me'morchiligi va madrasalar tizimi. Ilmiy tadqiqot ishlari, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi materiallari.
6. Mahalliy tarixiy yodgorliklar haqida internet ma'lumotlari (ilmiy va ensiklopedik manbalar).